OILA, TA’LIM TIZIMI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ADOLATPARVAR YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI ROLI

Hamroyev Saidjon Sanoyevich
Buxoro davlat pedagogika instituti
hamroyevsaidjon@buxdpi.uz

Annotatsiya. *Maqolada adolatparvar yosh shaxsini shakllantirish oila, uzluksiz ta’lim va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro ta’sirining natijasi sifatida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Adolat faqat huquqiy me’yorni bilish emas, balki kundalik munosabatlarda tenglik, mas’uliyat, halollik va boshqalarning qadr-qimmatini e’tirof etishga tayyorlikni ifodalovchi axloqiy-fuqarolik sifat sifatida talqin etiladi. Oiladagi shaxsiy namuna, ta’lim muassasasidagi adolatli pedagogik muhit hamda mahalla va jamoat tuzilmalaridagi amaliy ishtirok bir-birini to‘ldiruvchi tarbiya mexanizmlari ekanligi asoslanadi. Muallif ushbu institutlar hamkorligini “qadriyat – bilim – tajriba – fuqarolik mas’uliyati” izchilligi asosida tashkil etish adolatparvarlikni barqaror hayotiy pozitsiyaga aylantirishini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *oila, ta’lim, fuqarolik jamiyati, adolatparvarlik, yoshlar, huquqiy madaniyat, ma’naviy muhit, ijtimoiy hamkorlik, mas’uliyat, Uchinchi Renessans.*

Аннотация. *В статье с социально-философских позиций анализируется формирование справедливой молодежи как результат взаимодействия семьи, непрерывного образования и институтов гражданского общества. Справедливость рассматривается не только как знание правовых норм, но и как нравственно-гражданское качество, выражающее готовность соблюдать равенство, ответственность, честность и уважение достоинства других людей. Обосновывается взаимодополняющая роль личного примера в семье, справедливой педагогической среды и практического участия молодежи в деятельности махалли и общественных структур. Предлагается выстраивать сотрудничество данных институтов по логике «ценность – знание – опыт – гражданская ответственность».*

Ключевые слова: *семья, образование, гражданское общество, справедливость, молодежь, правовая культура, духовная среда, социальное сотрудничество, ответственность, Третий Ренессанс.*

Abstract. *The article provides a socio-philosophical analysis of the formation of justice-oriented youth as an outcome of interaction among the family, continuous education, and civil society institutions. Justice is interpreted not merely as knowledge of legal norms but as a moral and civic quality expressed through equality, responsibility, honesty, and respect for human dignity. The paper substantiates the complementary roles of parental example, a fair educational environment, and young people’s practical participation in mahalla and civic initiatives. It argues that cooperation among these institutions should follow the sequence “value – knowledge – experience – civic responsibility” in order to transform commitment to justice into a stable life position.*

Keywords: *family, education, civil society, justice-oriented youth, legal culture, moral environment, social cooperation, responsibility, Third Renaissance, youth.*

Kirish. Jamiyatning barqaror rivojlanishi nafaqat iqtisodiy resurslar yoki texnologik yangilanishga, balki fuqarolarning adolat haqidagi tasavvurlari va kundalik xulqida ushbu tamoyilning qay darajada namoyon bo‘lishiga ham bog‘liq. Shu sababli yosh avlodda adolatparvarlikni shakllantirish tarbiyaning alohida yo‘nalishi emas, balki huquqiy madaniyat, axloqiy mas’uliyat va fuqarolik faolligini birlashtiradigan kompleks jarayondir. Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans g‘oyasi doirasida bilimli, tashabbuskor va ijtimoiy mas’uliyatli avlodni voyaga yetkazish vazifasi aynan shunday integrativ yondashuvni talab etadi [1].

Adolat tuyg‘usi tayyor holda shakllanmaydi. Bola dastlab oiladagi munosabatlarni kuzatadi, keyin ta’lim muassasasida qoida va baholash mezonlarining amalda qanday ishlashini ko‘radi, undan so‘ng mahalla, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy maydonlarda o‘z fuqarolik tajribasini boyitadi. Demak, oila, ta’lim tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari alohida-alohida emas, balki yagona tarbiyaviy makonning o‘zaro bog‘langan bo‘g‘inlari sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Maqola adolatparvar yoshlarni tarbiyalashda mazkur uch institutning funksiyalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berish, ularning hamkorlik mexanizmlarini tizimlashtirish hamda amaliy tarbiyaviy modelni taklif etishdir. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism

-Oila yosh shaxs uchun ijtimoiy munosabatlarning birinchi modeli hisoblanadi. Farzand tenglik, burch, javobgarlik, mehr, o‘zaro hurmat kabi tushunchalarni avvalo nazariy ta’riflar orqali emas, balki ota-onaning kundalik qarorlari va munosabatlari orqali anglaydi. Uyda farzandlarning fikrini tinglash, vazifalarni imkoniyat va yoshga muvofiq taqsimlash, va’daga rioya qilish, xatoni tan olish hamda nizoni haqorat yoki zo‘ravonliksiz hal etish adolatning amaliy ko‘rinishlaridir.

Abdulla Avloniy tarbiyani inson va jamiyat taqdiri bilan bog‘liq hayotiy masala sifatida talqin qilib, axloqiy kamolotning ildizini yoshlik davridan izlaydi [2]. Uning pedagogik qarashlarida yaxshi xulqni shakllantirish faqat nasihat bilan emas, balki muhit va namuna bilan bog‘lanadi. Shu ma’noda, ota-onaning rostgo‘yligi, mehnatga munosabati va boshqalarning haq-huquqini e’tirof etishi bolaga beriladigan eng ta’sirchan axloqiy saboqdir.

Abdurauf Fitrat ham oilani farzandning jismoniy, aqliy va axloqiy kamolotini ta’minlaydigan muhim ijtimoiy makon sifatida ko‘radi [3]. Uning yondashuvi tarbiyaning xususiy oilaviy ish bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi: oilada hosil bo‘lgan odat va munosabat usullari keyinchalik shaxsning jamiyatdagi xulqiga ko‘chadi. Shuning uchun oiladagi adolatsizlik – farzandlarni kamsitish, qoida va talablarni izohsiz o‘zgartirish, kattalar uchun boshqa, bolalar uchun boshqa axloqiy mezon qo‘llash – yosh ongida “kuchli bo‘lgan haq” degan noto‘g‘ri tasavvurni yuzaga keltirishi mumkin.

Zamonaviy huquqiy yondashuv ham ota-onaning tarbiyaviy mas’uliyatini mustahkamlaydi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi bolalarni insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashi, ularning intellektual va ma’naviy rivoji uchun sharoit yaratishi lozimligi belgilangan [4]. Demak, oila adolatparvarlikning emotsional va axloqiy poydevorini yaratadi.

-Ta’lim muassasasi oilada shakllangan dastlabki qadriyatlarni tushuncha, bilim va ijtimoiy ko‘nikmalar darajasiga olib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, teng imkoniyatlarni ta’minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik hamda demokratik xususiyati, uzluksizlik va izchillik qayd etilgan [4]. Mazkur prinsiplar adolatparvar shaxsni tarbiyalash uchun normativ asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq adolatni faqat huquqiy atamalar va qonun moddalarini yodlash orqali shakllantirib bo‘lmaydi. O‘quvchi adolatli munosabatni ta’lim jarayonining o‘zida

his qilishi kerak. Baholash mezonlarining oldindan ma’lum bo‘lishi, bir xil vaziyatga bir xil talab qo‘llanishi, o‘quvchining fikrini tinglash, xatoga nisbatan kamsituvchi emas, rivojlantiruvchi munosabat bildirish pedagogik adolatning kundalik mexanizmlaridir. O‘qituvchining xolisligi va qarorlarini asoslay olishi o‘quvchida institutlarga ishonchni kuchaytiradi.

Tanqidiy fikrlash metodlari bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Muammoli vaziyat, munozara, dalillarni qiyoslash, keys-stadi, debat va loyiha usullari o‘quvchi-talabani tayyor hukmni qabul qilishdan ko‘ra, asoslangan xulosa chiqarishga o‘rgatadi. R. Paul va L. Elder tanqidiy fikrlashni fikr yuritish sifatini ongli ravishda takomillashtirish bilan bog‘laydi [5]. Adolat masalasida ham yoshlar bir voqea haqida turli pozitsiyalarni eshitishi, dalil va manfaatlarni farqlashi, qarorning oqibatini baholashi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, ta’lim muassasalarida “adolat laboratoriyasi”ga o‘xshash amaliy muhit yaratish mumkin, o‘quvchi va talabalar kengashlari, akademik halollik qoidalari, tengdoshlar mediatsiyasi, huquqiy klinikalar, volontyorlik va jamoaviy loyihalar yoshga qaror qabul qilish, javobgarlikni bo‘lishish va boshqalarning manfaatini hisobga olish tajribasini beradi. Bunday faoliyatda ustozning vazifasi tayyor xulosa berishdan ko‘ra, adolatli muhokama tartibini tashkil etishdan iborat bo‘ladi.

-Yoshning adolat haqidagi qarashlari real ijtimoiy tajriba bilan mustahkamlanmasa, u nazariy bilim darajasida qolib ketishi mumkin. Shu jihatdan mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar tuzilmalari, jamoat fondlari va ommaviy axborot vositalari ta’lim bilan jamiyat hayoti o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi. Konstitutsiyaning 36-moddasida fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda vakillari orqali ishtirok etish huquqi, jumladan o‘zini o‘zi boshqarish va jamoatchilik nazorati vositalari belgilangan [6].

Mahalla yoshlar uchun fuqarolik ishtirokining eng yaqin ijtimoiy maydonidir. Hududdagi muammolarni muhokama qilish, ijtimoiy yordam tashabbuslari, obodonlashtirish, kitobxonlik, ekologik va xayriya loyihalarida qatnashish orqali yosh “jamiyat” tushunchasini mavhum kategoriya sifatida emas, o‘zining bevosita mas’uliyat doirasi sifatida his qiladi. Bu tajribada adolat manfaatlar muvozanatini topish, zaif guruhlarning ehtiyojini ko‘ra bilish va umumiy qarorga hurmat bilan qarash qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yoshlarning ijtimoiy jihatdan shakllanishi va intellektual, ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishni davlat siyosatining mazmuni bilan bog‘laydi [7]. Bu yondashuv

yoshlarni faqat tarbiya obyekti sifatida emas, balki tashabbus ko‘rsatadigan va ijtimoiy jarayonlarda qatnashadigan subyekt sifatida ko‘rishni talab qiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari aynan shu subyektlikni amaliy faoliyat orqali rivojlantiradi.

Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar esa adolat haqidagi tasavvurlar shakllanadigan yangi ijtimoiy makonga aylandi. Axborot oqimining tezligi yoshlarni manbani tekshirish, fakt va talqinni ajratish, shaxs sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, bahsda dalilga tayanish kabi media-axloqiy ko‘nikmalarga ehtiyojmand qilmoqda. Shuning uchun media savodxonlikni adolatparvarlik tarbiyasining zamonaviy tarkibiy qismi sifatida ko‘rish lozim.

-Tahlil shuni ko‘rsatadiki, adolatparvarlikni shakllantirishda uch institutning vazifasi bir-birini takrorlamaydi, balki to‘ldiradi. Oila qadriyatning hissiy-axloqiy asosini beradi; ta’lim uni tushuncha, bilim va tahliliy ko‘nikmaga aylantiradi; fuqarolik jamiyati esa mazkur qadriyat va bilimni ijtimoiy tajribada sinash imkonini yaratadi. Shu asosda “qadriyat – bilim – tajriba – mas’uliyat” ketma-ketligini adolatparvar yoshlarni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy modeli sifatida taklif etish mumkin.

Modelning birinchi bosqichi – qadriyat – oiladagi namuna va o‘zaro hurmat orqali shakllanadi. Ikkinchi bosqich – bilim – ta’lim jarayonida huquq, axloq, tarix va ijtimoiy fanlar mazmuni hamda tanqidiy fikrlash vositasida anglanadi. Uchinchi bosqich – tajriba – mahalla, ta’lim muassasasi va jamoat loyihalarida hamkorlik, munozara va tashabbus orqali hosil bo‘ladi. To‘rtinchi bosqich – mas’uliyat – shaxsning qaror oqibatini anglab, o‘z huquqi bilan birga boshqalarning huquqi va umumiy manfaatni ham hisobga olish odatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu model samarali ishlashi uchun institutlar o‘rtasida muntazam axborot va faoliyat almashinuvi zarur. Masalan, ta’lim muassasasi ota-onalar bilan faqat o‘zlashtirish yoki intizom masalasida emas, balki akademik halollik, raqamli madaniyat, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish kabi mavzularda ham ishlashi, mahalla va jamoat tashkilotlari esa yoshlarning real tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydigan kichik loyihalar maydonini yaratishi mumkin. Bunda yoshlarning fikrini eshitish hamkorlikning asosiy sharti bo‘lishi lozim.

Natijani baholashda faqat tadbirlar soniga tayanish yetarli emas. Adolatparvarlik tarbiyasining mezonlari sifatida yoshning o‘z fikrini dalil bilan asoslay olishi, qarama-qarshi pozitsiyani hurmat bilan tinglashi, kamsitishga nisbatan murosasiz bo‘lishi, umumiy qoidalarga o‘zi ham rioya qilishi, xato qilganda javobgarlikni qabul qilishi va jamoat manfaatiga daxldor tashabbuslarda qatnashishi kabi xulqiy ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Adolatparvar yoshlarni tarbiyalash bir martalik ma’naviy-ma’rifiy tadbir emas, balki shaxsning bolalikdan fuqarolik yetukligigacha davom etadigan uzluksiz ijtimoiylashuv jarayonidir. Uning muvaffaqiyati oila, ta’lim tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari o‘zaro muvofiqlashganida ortadi. Oila adolatning dastlabki axloqiy tajribasini beradi, ta’lim uni bilim va tahliliy tafakkur bilan mustahkamlaydi, fuqarolik jamiyati esa ijtimoiy ishtirok va javobgarlik orqali amaliy mazmun bilan boyitadi.

Shu sababli adolatparvarlik tarbiyasida uch yo‘nalishga ustuvor ahamiyat berish zarur: birinchidan, ota-onalarning shaxsiy namunasiga tayangan oilaviy ma’naviy muhitni mustahkamlash; ikkinchidan, ta’limda xolis baholash, akademik halollik, tanqidiy fikrlash va muhokama madaniyatini rivojlantirish; uchinchidan, yoshlarning mahalla va jamoat loyihalaridagi real ishtirokini kengaytirish. Ana shunda adolat yosh ongida shior yoki mavhum tushuncha bo‘lib qolmay, kundalik qaror va xulqni boshqaradigan barqaror fuqarolik fazilatiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.

3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 112 b.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).

5. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Professional and Personal Life. – Pearson Education, 2002.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 30.04.2023. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ), 36-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-406-son, 14.09.2016. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).

8. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). O‘RQ-350-son, 22.04.2013. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).

9. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 14.04.1999. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).

10. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-78-son, 15.01.2007. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).